

**MANFAATDOR SHAXSNING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MA’MURIY SUD ISHLARINI YURITISHDA PROTSESS
ISHTIROKCHISI SIFATIDAGI O‘RNI VA UNING ODIL SUDLOV
SIFATINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI**

Jasurbek Saydulla o‘g‘li BOZOROV

tayanch doktorant

O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi

Sudyalar oliy maktabi

Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish zarurati va uning odil sudlov sifatiga ta‘siri tahlil qilinadi. Shuningdek, ma‘muriy sud tizimining rivojlanish tendensiyalari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar yoritiladi.

Tayanch so‘zlar: ma‘muriy sud, ma‘muriy ish yuritish, qonunchilik, takomillashtirish, odil sudlov, sud tizimi, huquqiy islohot, shaffoflik, fuqarolar huquqlari, sud qarorlarini ijro etish.

**РОЛЬ ЗАИНТЕРЕСОВАННОГО ЛИЦА КАК УЧАСТНИКА
ПРОЦЕССА В АДМИНИСТРАТИВНОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ПОВЫШЕНИИ
КАЧЕСТВА ПРАВОСУДИЯ**

Джасурбек Сайдулла оглы БАЗОРОВ

базовый докторант

Высшая школа судей при Высшем судейском совете

Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В настоящей статье анализируется необходимость совершенствования законодательства об административном судопроизводстве в Республике Узбекистан и его влияние на качество правосудия. В статье рассматриваются тенденции развития административной судебной системы, существующие проблемы и предложения по их устранению.

Ключевые слова: административный суд, административное судопроизводство, законодательство, совершенствование, правосудие, судебная система, правовая реформа, прозрачность, права граждан, исполнение судебных решений.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4966-son

Farmoni bilan 2017-yil 1-iyundan [3] boshlab ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan ma'muriy sudlarning tashkil etilishi, O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risida"gi kodeksi [2] hamda "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunining [1] qabul qilinishi ushbu sohada tub o'zgarish qilishga huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

Ta'kidlash kerakki, yuqoridagi kabi qonun hujjatlarining qabul qilinishi ommaviy huquq sohasida ma'muriy ish yuritishni tashkil etishda muhim o'rin tutmoqda.

O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunining 4-moddasida ma'muriy ish yuritish – ma'muriy tartib-taomil orqali tartibga solingan ma'muriy ishni ko'rib chiqish, ma'muriy hujjatni qabul qilish, uni ma'muriy shikoyat bo'yicha qayta ko'rish, shuningdek ma'muriy hujjatni ijro etish jarayoni ekanligi alohida qayd etilgan.

Ushbu ta'rifni tahlil qilar ekanmiz, albatta, ma'muriy ish yuritishda ishtirokchilar tarkibi qanchalik ahamiyatli ekanligini ko'ramiz.

"Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risida"gi kodeksning 37-57-moddalarida ma'muriy sud ishlarida ishtirokchilarning huquqiy maqomi keltirib o'tilgan.

Ushbu Kodeksda keltirilgan ishtirokchilarni ularning vazifa va funksiyalariga qarab quyidagi ma'muriy organ, adresat (qabul qilinayotgan ma'muriy hujjat yoki amalga oshirilayotgan ma'muriy harakat o'ziga qaratilgan shaxs tushuniladi) va uchinchi shaxslar kabi turlarga ajratishimiz mumkin.

Ushbu o'rinda e'tiborni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PQ-33-son qarorining 1-Ilovasi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasi [4]ga qaratsak.

Ushbu Konsepsiyaning 1-bandida ma'muriy sud ishlarini yuritishda manfaatdor shaxs tushunchasining huquqiy ta'rifini aniqlashtirish, shaxsning manfaatdorligi masalasini arizani sudga qabul qilish jarayonida hal etish tartibini

joriy etish zarurligi alohida keltirib o'tilgan, bu esa, o'z o'rnida bugungi kundagi ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchiligimiz ayrim islohotlar hamda o'zgarishlarga muhtojligini hamda ushbu maqomning odil sudlovni amalga oshirishdagi o'rni va roli naqadar ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

Xo'sh, manfaatdor shaxs deyilganda kimni yoki kimlarni tushunishimiz kerak?

Bilamizki, yuqorida ta'kidlab o'tilgan adresat tushunchasi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunning 22-moddasida batafsil yoritilgan. Unga ko'ra adresat deganda qabul qilinayotgan ma'muriy hujjat yoki amalga oshirilayotgan ma'muriy harakat o'ziga qaratilgan shaxs tushuniladi.

Endi asosiy mavzu *manfaatdor shaxs* tushunchasining qonuniy ta'rifiga to'xtalsak, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonunning 4-moddasida manfaatdor shaxs tushunchasi ham keltirib o'tilgan bo'lib, uning ta'rifiga ko'ra qabul qilinayotgan ma'muriy hujjat yoki ma'muriy harakat qaratilgan shaxs, shuningdek huquqlari va qonuniy manfaatlari ma'muriy hujjatga yoki ma'muriy harakatga daxldor bo'lgan yoxud daxldor bo'lishi mumkin bo'lgan shaxs tushunilishi keltirilgan.

Bundan tashqari, "Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risida"gi kodeksning 184-moddasida keltirilgan normani sharhlash orqali quyidagi fikrga kelishimiz mumkin. Manfaatdor shaxs bu – ma'muriy organlarning va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi ustidan shikoyat qilishi mumkin bo'lgan fuqarolar yoki yuridik shaxslardir. Biroq ushbu o'rinda "Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risida"gi kodeksining hech bir moddasida manfaatdor shaxs tushunchasiga to'liq ta'rif keltirib o'tilmaganligini ta'kidlashimiz lozim.

Shuning uchun bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PQ-33-son qarorining 1-Ilovasi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasining ijrosini ta'minlash hamda odil sudlovni amalga oshirish uchun

ushbu tushunchaning yaxlit ta'rifini yaratish hamda uni qonunchilikka joriy etish sudlar faoliyatidagi odillikni ta'minlashga katta hissa qo'shadi.

Ushbu holatda xorij tajribasiga qaraydigan bo'lsak, Gruziya Respublikasining Ma'muriy protsessual kodeksining 16-moddasida [5] manfaatdor shaxslar keltirib o'tilgan. Unga ko'ra 16-moddaning uchinchi qismida har bir manfaatdor shaxs ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismlariga muvofiq ishda uchinchi shaxs sifatida ishtirok etish to'g'risida sudga murojaat qilishi mumkin ekanligi keltirilgan. Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida esa quyidagi normalar keltirib o'tilgan. Sud asosiy sud majlisi tugagunga qadar manfaatlari sudning hal qiluv qarori bilan daxl qilingan yoki qilinishi mumkin bo'lgan shaxslarni ma'muriy ish yuritish boshlanganligi to'g'risida xabardor qilishga va ularni ishda uchinchi shaxs sifatida jalb etishga haqli. Bundan ko'rinib turibdiki, Gruziya Respublikasining ma'muriy sud ish yurituv to'g'risidagi qonunchiligiga ko'ra *manfaatdor shaxs alohida ma'muriy sud ish yurituv ishtirokchisi emas*, balki uchinchi shaxslarning ajralmas qismi hisoblanadi.

Bundan tashqari xorijiy mamlakatlardan Estoniya davlatining ham qonunchiligiga nazar solsak. Estoniya Respublikasining ma'muriy-protsessual kodeksining 3-bobi ma'muriy sud ish yurituvining ishtirokchilariga bag'ishlangan. Biroq ushbu qonun hujjatining biror qismida *manfaatdor shaxs tushunchasi* alohida maqom sifatida keltirilmagan. Ammo ushbu Kodeksning 15-moddasida [7] protsess ishtirokchilarining quyidagi turlari keltirib o'tilgan.

1. Jarayon ishtirokchilari:

- taraflar (shikoyatchi va javobgar);
- uchinchi shaxs;
- jalb qilingan ma'muriy organ.

2. Davlat yoki shahar ma'muriy organi davlat yoki mahalliy hokimiyat birligi nomidan ish yuritishda ishtirokchi sifatida qatnashadi.

3. Ma'muriy ish yuritishda ma'muriy organlar Ma'muriy organlar to'g'risidagi qonunning 8-moddasi 1-bandida keltirilgan ma'muriy organlar.

Yuqorida ko‘rinib turibdiki, ma‘muriy protsess ishtirokchilari sifatida manfaatdor shaxs tushunchasi keltirib o‘tilmagan.

Ushbu Kodeksning 20-moddasida [7] uchinchi shaxslar tushunchasi keltirib o‘tilgan. Unga ko‘ra:

1. Ma'muriy sud, agar uning huquqlari yoki majburiyatlari to‘g‘risidagi masala sud hujjati bilan hal qilinishi mumkin bo‘lsa, uchinchi shaxs sifatida ish yuritishda ishtirok etmagan shaxsni taklif qiladi.

2. Agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, jarayonda uchinchi shaxs taraflar bilan teng huquq va majburiyatlarga ega.

Bundan ko‘rinib turibdiki, agarda sud hujjatining qabul qilinishi natijasida boshqa shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlariga zarar yetish ehtimoli bo‘lgan hollarda sud tashabbusi bilan yoki bunday shaxslarning o‘z arizalariga asosan ishga uchinchi shaxs sifatida jalb qilinishi mumkin ekan.

Yuqorida keltirib o‘tilgan xorij tajribalarini tahlil qilgan holda Gruziya Respublikasida ham, Estoniya Respublikasida ham manfaatdor shaxslarning huquqiy maqomi uchinchi shaxslar bilan bir xil manoda qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonunining 12-moddasiga muvofiq manfaatdor shaxslarga majburiyatlar orqali qiyinchilik tug‘dirish, faqat rasmiy qoidalar va talablarga rioya etilishi maqsadidagina ularga huquqlar berishni rad etish yoki ularning huquqlarini boshqacha tarzda cheklash ma‘muriy organlarga taqiqlanadi. Hozirda, manfaatdor shaxslarning ma‘muriy organlar bilan o‘zaro munosabatlarida manfaatdor shaxslar huquqlarining ustunligi, ma‘muriy organlar tomonidan byurokratik rasmiyatchilikka yo‘l qo‘yilmasligi, ma‘muriy ish yuritishning “bir darcha” orqali amalga oshirilishi, manfaatdor shaxslarning ma‘muriy hujjatga bo‘lgan ishonchi qonun bilan qo‘riqlanishi qonun bilan kafolatlangan bo‘lib, bu, o‘z navbatida, ma‘muriy ish yuritishda manfaatdor shaxslarning huquqlarini ma‘muriy organlarning o‘zboshimchaligi, davlat boshqaruvi organlarining noqonuniy qarorlari ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakati yoki harakatsizligi ustidan samarali himoyasini ta‘minlaydi.

Bu o‘rinda milliy qonunchiligimizdagi adresat, manfaatdor shaxs hamda uchinchi shaxslarning maqomini nazariy jihatdan tahlil qilib ko‘rsak. “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi o‘onunning 22-moddasida ma‘muriy ish yuritish ishtirokchilari keltirib o‘tilgan bo‘lib, ulardan adresat deganda qabul qilinayotgan ma‘muriy hujjat yoki amalga oshirilayotgan ma‘muriy harakat o‘ziga qaratilgan shaxs tushuniladi.

“Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonunning 2-moddasida manfaatdor shaxs tushunchasi ham keltirib o‘tilgan bo‘lib, uning ta‘rifiga ko‘ra qabul qilinayotgan ma‘muriy hujjat yoki ma‘muriy harakat qaratilgan shaxs, shuningdek huquqlari va qonuniy manfaatlari ma‘muriy hujjatga yoki ma‘muriy harakatga daxldor bo‘lgan yoxud daxldor bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxs tushuniladi.

Demak, manfaatdor shaxs adresatga ko‘ra keng bo‘lib, u nafaqat adresatni, balki uchinchi shaxslarni ham qamrab oladi. “Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi qonunning 22-moddasiga binoan uchinchi shaxslar deganda huquqlari va qonuniy manfaatlariga ma‘muriy hujjat yoki ma‘muriy harakat daxldor bo‘lgan yoxud daxldor bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxsga aytiladi [6].

Misol uchun, 2017-yil 26-oktyabr` kuni Toshkent shahar Chilonzor tuman Yer resurslari va davlat kadastr bo‘limi tomonidan fuqaro A ga doir ma‘muriy ish yuzasidan ma‘muriy hujjat qabul qilingan. A ko‘p kvartirali uyda joylashgan turar joyini rekonstruktsiya qilingan turar joyga nisbatan ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatdan o‘tkazish uchun murojaat qilgan. Biroq, Chilonzor tuman Yer resurslari va davlat kadastr bo‘limi A ning ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni rad etgan. A ning qo‘shnisi fuqaro B ma‘muriy ishni ko‘rib chiqishda ishtirok etishini so‘rab murojaat qildi.

Xo‘sh, bu holatni milliy qonunchiligimiz asosida tahlil qilsak, bu vaziyatda adresat kim? Bu vaziyatda adresat ma‘muriy hujjat o‘ziga qaratilgan shaxs, ya‘ni fuqaro A dir. Fuqaro B esa uchinchi shaxsdir. A va B birgalikda manfaatdor shaxslar hisoblanadilar. Ammo ma‘muriy hujjat adresat hisoblanmish fuqaro A ga

xabar berilganidan boshlab kuchga kiradi. Sababi, aynan u yuqorida ta'kidlanganidek ma'muriy hujjat o'ziga qaratilgan shaxsdir.

Xorij mamlakatlarining qonunchiligida keltirilgan ilg'or amaliyot va tajribalarni milliy qonunchiligimizga moslashtirgan holda implementatsiya qilish, nafaqat ma'muriy ommaviy huquq tizimidagi, balki barcha huquq sohalaridagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, jamiyatda vujudga kelayotgan hamda shu paytgacha o'z yechimini topmasdan kelayotgan va mamlakatimizda odil sudlovni amalga oshirishga sezilarli putur yetkazib kelayotgan kamchiliklarni samarali yechishga yordam beradi.

Ushbu xorij amaliyotidan kelib chiqqan holda milliy qonunchiligimizda keltirilgan ma'muriy sud ishlarini yuritishda manfaatdor shaxs tushunchalarini aniqlashtirish zarur deb o'ylayman.

Ushbu holat bo'yicha manfaatdor shaxs tushunchasida keltirilgan *“qabul qilinayotgan ma'muriy hujjat yoki ma'muriy harakat qaratilgan shaxs, shuningdek huquqlari va qonuniy manfaatlari ma'muriy hujjatga yoki ma'muriy harakatga daxldor bo'lgan yoxud daxldor bo'lishi mumkin bo'lgan shaxs”* jumalari to'g'ridan-to'g'ri adresatning mutlaq tushunchasi sifatida qaralishi hamda manfaatdor shaxs tushunchasiga faqatgina uchinchi shaxslarning bir qismi sifatida qaralishi hamda talqin qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Qonuni //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.
2. Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining Kodeksi //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03/24/1003/0943-son.
3. O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi PF-4966-son Farmoni. Lex.uz.
4. Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-

tadbirlar to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvar PQ-33-son qarori //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 30.01.2025-y., 07/25/33/0091-son.

5. Административно-процессуальный кодекс Грузии.
<https://matsne.gov.ge/ru/document/download/16492/64/ru/pdf>.

6. Ma'muriy huquq va protsess: darslik /B.Musaev, D.Artikov, B.Qosimov. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2020.

7. Административно-Процессуальный Кодекс Республики Эстонии.
Lex.uz